Abstract. This article analyzes the impact of the organization of waste processing processes at industrial enterprises based on the principles of ESG (Environmental, Social, Governance) on sustainable development. Due to the growth of global production volumes, the amount of waste is increasing sharply. Therefore, ensuring environmental safety, rational use of resources, and supporting the sustainable development of territories are becoming important. The article explores the approaches of the circular economy to the processing of industrial waste, the introduction of green technologies, the mechanisms for evaluating the activities of enterprises based on ESG standards, as well as international experience. The economic and social effects of transforming waste into energy sources and secondary raw materials are also highlighted. The results of the study show that improving the waste management system at industrial enterprises contributes to achieving the goals of sustainable development as an important driver for the application of ESG principles.

Keywords: ESG principles, sustainable development, industrial waste, waste recycling, circular economy, green technologies, environmental safety, business transformation.

Kirish

XXI asrda global miqyosda sanoat ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda. Ushbu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u keltirib chiqargan salbiy oqibatlar ham tobora keskinlashmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi chiqindilar miqdorining keskin koʻpayishiga olib kelmoqda. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, 2020- yilda dunyo boʻyicha maishiy chiqindilar hajmi 2,1 milliard tonnani tashkil etgan. Agar mavjud tendensiyalar davom etsa, 2050- yilga kelib bu raqam 3,8 milliard tonnagacha oshishi prognoz qilinmoqda. Sanoat chiqindilarining oʻsishi ham tashvishli: faqatgina elektron chiqindilar (e-waste) hajmi 2010- yildagi 34 milliard kilogrammdan 2022- yilda 62 milliard kilogrammgacha yetdi va 2030- yilga borib 82 milliard kilogrammga chiqishi

mumkin. Bunday ko'rsatkichlar atrof-muhit, inson salomatligi va barqaror rivojlanishga bevosita xavf tug'diradi [1].

Chiqindilar muammosi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ham jiddiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Yer resurslari va suv havzalarining ifloslanishi, havodagi zararli gazlarning ko'payishi hududlarda yashash sifatini yomonlashtiradi. Shuningdek, chiqindilarni noqonuniy tashlash yoki ochiq yoqish natijasida karbonat angidrid va boshqa zararli gazlar chiqindilari ko'payib, iqlim o'zgarish jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bois chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash masalasi bugungi kunda nafaqat ekologlar, balki iqtisodchilar, siyosatchilar va jamiyatning barcha qatlamlari diqqat markazida turibdi.

Ana shunday sharoitda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. ESG mohiyatan korxonalar faoliyatini faqat moliyaviy natijalar orqali emas, balki ekologik ta'sir, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruvning shaffofligi orqali ham baholashni nazarda tutadi. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda yirik kompaniyalarning qariyb 95 foizi ESG bo'yicha hisobotlarni e'lon qilmoqda. Investorlarning esa 90 foizdan ortig'i o'z qarorlarini qabul qilishda ESG ko'rsatkichlariga e'tibor qaratmoqda. Bu esa mazkur tamoyillarning nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishda, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi [2].

Sanoat chiqindilarini qayta ishlash ESG tamoyillarining eng muhim tarkibiy qismidir. Qayta ishlash orqali nafaqat chiqindilar hajmi kamayadi, balki tabiiy resurslardan foydalanish bosimi ham yengillashadi. Masalan, Xalqaro Energetika Agentligi hisob-kitoblariga ko'ra, qayta ishlash darajasini hozirgi 41 foizdan 2030 yilga kelib 47 foizga oshirish material ishlab chiqarish natijasidagi issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizga kamaytirishi mumkin. Bu raqamlar qayta ishlash jarayonining nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorligini ham yaqqol namoyish etadi [3].

O'zbekiston sharoitida ham chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash masalasi dolzarbdir. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilda mamlakat bo'yicha 105 million tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo'lgan. Ulardan atigi 32 foizi qayta ishlangan yoki ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanilgan. Qolgan qismi esa chiqindixonalarga tashlangan yoki vaqtinchalik saqlash joylarida yig'ilib qolgan. Bu esa iqtisodiy resurslarning samarasiz ishlatilishidan tashqari, ekologik xavflarni ham kuchaytiradi [4]. Shu bois O'zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o'tish, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ESG tamoyillarini keng tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sirkulyar iqtisodiyotning asosiy g'oyasi "olish-ishlab chiqarish-foydalanish-tashlash" kabi chiziqli modeldan voz kechib, resurslarning qayta aylanishiga

asoslangan iqtisodiy tizimni shakllantirishdir. Bunda chiqindilar ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlanadi, energiya manbai sifatida foydalaniladi yoki boshqa sohalarda qayta iste'mol qilinadi. Bu nafaqat chiqindilar hajmini kamaytiradi, balki yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mahalliy hamjamiyatlar uchun qo'shimcha foyda keltirish imkonini beradi.

Shunday qilib, sanoat chiqindilarini boshqarish masalasi bugungi global dunyoda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. ESG tamoyillari bu jarayonni yanada tizimli ravishda amalga oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va hududlarni yashil iqtisodiyot yo'nalishida rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaralmoqda. Ushbu maqola doirasida sanoat chiqindilarini qayta ishlashning ESG tamoyillari bilan uyg'unlashuvi, sirkulyar iqtisodiyotning amaliy ahamiyati va barqaror rivojlanishga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalari uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va biznesni transformatsiyalash borasida ilmiy va amaliy asoslarni taklif etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

So'nggi yillarda ESG tamoyillari va sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinishi chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash masalalarining global darajadagi dolzarbligini ko'rsatmoqda. Turli tadqiqotchilar ESG tamoyillarini nafaqat investitsiya strategiyasi yoki korporativ boshqaruv mexanizmi sifatida, balki barqaror rivojlanishning asosiy drayveri sifatida baholashmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda birinchi navbatda ESG va chiqindilarni boshqarishning o'zaro bog'liqligi chuqur tahlil qilingan. Masalan, World Bank ning 2018-yilgi hisobotida qayd etilishicha, chiqindilar hajmi 2050-yilga kelib 70 foizga oshishi mumkin, shuning uchun ham davlat va xususiy sektor hamkorligida chiqindilarni qayta ishlash va ularni kamaytirish strategiyalari ishlab chiqilishi zarur. OECD tadqiqotchilari ham chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash choralarini ESG ko'rsatkichlarida aks ettirish korxonalarining ekologik mas'uliyatini oshirishini ta'kidlaydi [5].

Kapoor va Dhamija ESG tamoyillari va sirkulyar iqtisodiyot aloqalarini o'rganib, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining ESG reytingi yuqori bo'lishi nafaqat ularning moliyaviy natijalariga, balki ijtimoiy ishonch darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Ularga ko'ra, qayta ishlash orqali har yili dunyo bo'yicha 700 million tonnagacha karbonat angidrid ekvivalenti qisqartirilishi mumkin.

Shuningdek, Bocken va Short o'z tadqiqotlarida sirkulyar biznes-modellarning samaradorligini tahlil qilib, chiqindilarni qayta ishlash jarayonida innovatsion yondashuvlar – masalan, “industrial symbiosis” (korxonalar chiqindisini boshqa

korxona resurs sifatida ishlatishi) – iqtisodiy va ekologik foydani sezilarli darajada oshirishini isbotlaydi.

ESGning iqtisodiy ta'siri bo'yicha ham adabiyotlarda ko'plab qarashlar mavjud. Global Sustainable Investment Alliancening 2020-yilgi hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha ESG tamoyillariga asoslangan investitsiyalar hajmi 35 trillion AQSh dollaridan oshgan. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish sohalariga qo'shimcha kapital oqimini ta'minlamoqda [6].

Xalqaro Energetika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, qayta ishlash darajasini oshirish sanoatdagi issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizga kamaytirishi mumkin. Bu esa ESG tamoyillarini qo'llagan korxonalar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi, balki iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda ham faol rol o'ynashini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo va O'zbekiston olimlari ham bu masalaga e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, S. Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, O'zbekistonda sanoat chiqindilarining hajmi yiliga 100 million tonnadan oshmoqda, ammo qayta ishlash ko'rsatkichi hali past darajada – 30–35 foiz atrofida. Olimning fikricha, ESG tamoyillarini sanoat korxonalarida joriy etish chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida iqtisodiy aylanmaga qaytarish imkonini beradi [7].

Shuningdek, iqtisodchi olim D. Tursunova o'z maqolasida sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasini O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarini yoritib, chiqindilarni qayta ishlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish, energiya resurslarini tejash va hududlarni barqaror rivojlantirish mumkinligini asoslaydi. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Yevropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham O'zbekiston chiqindilarni boshqarish siyosatini takomillashtirish yo'lida muhim qadamlar qo'yayotgani, lekin texnologik va moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Jumladan, 2022-yilda chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha respublika miqyosida bir qator zamonaviy klaster loyihalari amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali ham chiqindilarni to'liq saralash va qayta foydalanishga yetarli infratuzilma mavjud emas [8].

Adabiyotlarda ESG tamoyillari va chiqindilarni qayta ishlashning ijtimoiy ta'siri ham keng yoritilgan. Masalan, Lozano o'z tadqiqotida ESG mezonlariga amal qiluvchi korxonalarda xodimlarning ijtimoiy himoyasi yaxshilanishi, mehnat sharoitlari modernizatsiyalashishi va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik kuchayishini qayd etadi. Bu jarayon natijasida korxonalarning ijtimoiy kapitali ortadi, ularning barqaror rivojlanishga qo'shgan hissasi kengayadi [9].

Shuningdek, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ESG tamoyillarini joriy etish nafaqat ekologik muammolarni kamaytirish, balki iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim omil

hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar bu tamoyillarni amaliyotga joriy qilish global miqyosda katta foyda berishini isbotlagan bo'lsa, milliy olimlar va tashkilotlar ularni O'zbekiston sharoitida moslashtirish, tegishli texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlamogda. Demak, chiqindilarni qayta ishlashning barqaror rivojlanishga ta'siri haqida ilmiy adabiyotlarda keng qamrovli va dolzarb ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularni tahlil qilish keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda analitik-tahliliy yondashuv asosida xalqaro va milliy ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi. Taqqoslash usuli yordamida O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Sistemali yondashuv asosida ESG tamoyillari va chiqindilarni boshqarish o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishi taraqqiyotning muhim drayveri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, uning ortidan hosil bo'layotgan chiqindilar miqdori yil sayin ko'payib, atrof-muhitga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo miqyosida ekologik muammolarni kamaytirish uchun turli strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida chiqindilarni qayta ishlash jarayonini ESG tamoyillari asosida tashkil etish eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida ajralib turadi. ESG, ya'ni ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillari, sanoat korxonalarining nafaqat iqtisodiy samaradorligini, balki ijtimoiy mas'uliyatini va ekologik barqarorligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Yevropa Ittifoqi davlatlari chiqindilarni qayta ishlash sohasida katta natijalarga erishganini ko'ramiz. Masalan, 2020- yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Yevropada hosil bo'layotgan chiqindilarning qariyb yarmi qayta ishlangan. Ayrim mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich yanada yuqori. Germaniyada chiqindilarning 67 foizi, Avstriyada 58 foizi, Niderlandiyada esa 56 foizi qayta ishlanmoqda. Bu yutuqlarga erishishda davlatning qat'iy siyosati, investitsiyaviy rag'batlar va zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Bunday yondashuv nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy foydani ham ta'minlamoqda [10].

Moliyaviy jihatdan qaraganda ham chiqindilarni qayta ishlash sezilarli natija beradi. Xalqaro Energetika Agentligi hisob-kitoblariga ko'ra, chiqindilarni samarali boshqarish global sanoatda issiqxona gazlari chiqindilarini 20 foizgacha kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, korxonalar qayta ishlangan xomashyo hisobiga o'z xarajatlarini 25–30 foizgacha qisqartirish imkoniga ega bo'ladi. Masalan, alyuminiyni qayta ishlash yangi rudani qazib olishdan deyarli to'qqiz

barobar arzon tushadi. Bu esa iqtisodiy jihatdan nafaqat korxonalar, balki butun mamlakatlar uchun katta foyda keltiradi.


1-jadval

Sanoat chiqindilari va qayta ishlash darajasi [11]

Davlat	Yillik chiqindi (mln tonna)	Qayta ishlash darajasi (%)	Qayta ishlangan chiqindi (mln tonna)
Germaniya	400	67	268
Avstriya	60	58	34.8
Niderlandiya	70	56	39.2
Yevropa Ittifoqi	2500	48	1200
O'zbekiston	105	32	33.6

Yuqoridagi jadvalda turli davlatlarda sanoat chiqindilarining yillik hajmi va qayta ishlash darajalari ko'rsatilgan. Germaniya, Avstriya va Niderlandiya kabi Yevropa davlatlarida chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo'lib, Germaniyada 67 foiz, Avstriyada 58 foiz, Niderlandiyada esa 56 foizni tashkil etmoqda. Bu davlatlarda chiqindilarni qayta ishlash nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlamoqda, balki iqtisodiy foyda ham keltirmoqda. Masalan, Germaniyada yiliga 400 million tonna chiqindining 268 million tonnasi qayta ishlanadi. Bu natija zamonaviy texnologiyalar va qat'iy davlat siyosati samarasi hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 48 foizni tashkil qilmoqda, bu ham sezilarli daraja bo'lib, chiqindilarning yarmi ikkilamchi aylanmaga qaytarilayotganini bildiradi. O'zbekiston misolida esa chiqindilarni qayta ishlash darajasi atigi 32 foiz bo'lib, bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarga qaraganda past hisoblanadi. Yillik 105 million tonna chiqindidan bor-yo'g'i 33,6 million tonnasi qayta ishlanmoqda, qolgan qismi esa chiqindixonalarda to'planib qolmoqda.



1-rasm. Sanoat chiqindilarini qayta ishlash darajasi (%) [12]

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish dolzarb masaladir. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ESG tamoyillariga amal qilish va davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali bu ko'rsatkichlarni sezilarli oshirish mumkin.

O'zbekiston sharoitida esa chiqindilarni qayta ishlash borasida muayyan muammolar saqlanib qolayotganiga qaramay, ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatda 105 million tonnadan ortiq sanoat chiqindilari hosil bo'lgan. Ulardan atigi 32 foizi qayta ishlangan yoki ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanilgan. Qolgan qismi esa chiqindixonalar va poligonlarda saqlangan bo'lib, bu nafaqat ekologik xavf tug'diradi, balki katta iqtisodiy imkoniyatlarning yo'qotilishiga ham sabab bo'ladi.

Shunga qaramay, so'nggi yillarda chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo'yicha ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Masalan, 2021–2023 yillar oralig'ida mamlakatimizda 200 ga yaqin qayta ishlash loyihalari ishga tushirilgan. Bu korxonalarning aksariyati plastmassa, qog'oz va metall chiqindilarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Toshkent shahrida va ayrim viloyatlarda chiqindilarni dastlabki saralash tizimi joriy qilina boshladi. Bundan tashqari, chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha tajriba loyihalari ham yo'lga qo'yilmoqda. Bularning barchasi chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslari uyg'unlashayotganidan dalolat beradi.

Biroq mavjud vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada hali ko'plab muammolar mavjud. Birinchidan, qayta ishlash quvvatlarining yetarli emasligi hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilmaganligi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Ikkinchidan, chiqindilarni dastlabki saralash tizimi butun mamlakat bo'ylab to'liq yo'lga qo'yilmagan. Uchinchidan, moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi yangi loyihalarning keng joriy qilinishiga to'sqinlik qilmoqda. Nihoyat, korxonalar darajasida ESG tamoyillarini tushunish va amaliyotda qo'llash madaniyati hali ham shakllanish bosqichida.

Shu bilan birga, imkoniyatlar ham mavjud. ESG tamoyillari asosida ishlovchi korxonalar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki xalqaro moliya bozorida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli loyihalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Qayta ishlash orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholining bandligi oshadi va hududlar iqtisodiyoti jonlanadi. Ekologik muhit yaxshilangani sari hududlarning turizm salohiyati ortadi va yashash uchun qulayliklar kengayadi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan bir vaqtning o'zida foyda keltiradi. Ekologik tomondan, qayta ishlash atmosferaga chiqariladigan karbonat angidridni kamaytiradi, yer va suv resurslarini asraydi hamda ifloslanishni pasaytiradi. Iqtisodiy tomondan, ikkilamchi xomashyo yangi resurslarni qazib olishdan ko'ra

ancha arzon bo'lgani sababli korxonalar xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Ijtimoiy tomondan esa yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi, aholining turmush darajasi ko'tariladi va jamiyatda ekologik mas'uliyat madaniyati shakllanadi.

Shunday qilib, ESG tamoyillarini sanoat chiqindilarini qayta ishlash jarayoniga tatbiq etish nafaqat ekologik muhitni yaxshilaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirib, hududlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun bu sohada imkoniyatlar keng bo'lib, eng asosiy vazifa ularni to'g'ri yo'naltirish va zamonaviy yondashuvlar orqali amalga oshirishdan iboratdir.

Xulosa

ESG tamoyillari asosida sanoat chiqindilarini boshqarish va qayta ishlash jarayonlari nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishda, balki iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash orqali resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazishni minimallashtirish va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Niderlandiya va Avstriya kabi mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo'lib, bu ularning sanoat samaradorligi va yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda esa ushbu jarayon endigina rivojlanayotgan bo'lsa-da, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik orqali ushbu ko'rsatkichlarni oshirish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, ESG tamoyillarini joriy etish sanoat chiqindilarini qayta ishlashni jadallashtirib, mamlakatimizda barqaror iqtisodiyot qurilishining muhim drayveriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations. (2023). Sustainable Development Goals Report. New York: UN Publishing.
2. OECD. (2022). Circular Economy and Resource Efficiency. Paris: OECD Publishing.
3. World Bank. (2021). Waste Management and Recycling for Sustainable Growth. Washington DC.
4. Ellen MacArthur Foundation. (2020). Towards a Circular Economy. UK.
5. European Environment Agency. (2021). Waste Recycling in Europe. Copenhagen.
6. Porter, M., & Kramer, M. (2019). Creating Shared Value: ESG and Business Transformation. Harvard Business Review.
7. International Finance Corporation (IFC). (2022). ESG Standards in Emerging Markets. Washington DC.

8. Ministry of Ecology of Uzbekistan. (2023). Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha hisobot. Toshkent.
9. Karimov, A. (2022). "O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlashning muammolari va istiqbollari." TDIU Ilmiy Jurnali.
10. Ismoilova, N. (2021). "ESG tamoyillari va sanoat korxonalarida ularning qo'llanilishi." Moliya va Iqtisodiyot, №4.
11. PwC Global. (2022). ESG Reporting and Sustainable Finance. London.
12. Statista. (2023). Global Waste Generation and Recycling Statistics.

AGLOMERATSIYALARNING "YASHIL" IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Shohruh Mardonov

TDSHU tayanch doktoranti, o'qituvchi

E-mail: shohruh_mardonov@tsuos.uz

Orcid: [0009-0002-2722-3231](https://orcid.org/0009-0002-2722-3231)

Annotatsiya. Agglomeratsiyalar, zich metropolitan va shahar klasterlari, yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada agglomeratsiyalarning yashil rivojlanishga ta'sirini baholash uchun uchta asosiy ko'rsatkich – CO₂ chiqindilari, yashil ish o'rinlari va energiya intensivligi tahlil qilinadi. Jahon banki, OECD, BMT-Habitat, xalqaro ilmiy maqolalar va global ma'lumotlar bazalari asosida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, agglomeratsiyalar energiya bilan bog'liq chiqindilarning asosiy qismini ishlab chiqarsada, ular har bir kishiga to'g'ri keladigan chiqindilarni kamaytirish, ko'plab yashil ish o'rinlari yaratish va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Faqat, infratuzilmaviy, institutsional va siyosiy omillar bunga moslashtirilgan bo'lsa bu o'z samarasini beradi. Maqola yakunida agglomeratsiyalarning yashil salohiyatini maksimal darajada oshirish bo'yicha ijtimoiy iqtisodiy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Agglomeratsiya, "yashil" iqtisodiyot, urbanizatsiya, iqlim, energetika, integratsiya, intensivlik, modernizatsiya.

Аннотация. Агломерации, плотные метрополитенские зоны и городские кластеры – играют важную роль в процессе перехода к «зеленой» экономике. В данной статье оценивается влияние агломераций на развитие «зеленой» экономики на основе трех ключевых показателей: выбросов CO₂, «зеленых» рабочих мест и энергоёмкости. Анализ, проведённый на основе данных Всемирного банка, ОЭСР, ООН-Хабитат, международных научных публикаций и глобальных статистических баз, показал, что, несмотря на то что агломерации производят основную часть энергозависимых выбросов, они также обладают потенциалом для снижения выбросов CO₂ в расчёте на душу населения, создания значительного числа «зеленых» рабочих мест и повышения энергоэффективности. Однако такие положительные результаты возможны лишь при наличии соответствующих инфраструктурных, институциональных и политических условий. В заключительной части статьи представлены социально-экономические рекомендации, направленные на максимальное раскрытие «зеленого» потенциала городских агломераций.

Ключевые слова: агломерация, «зеленая» экономика, урбанизация, климат, энергетика, интеграция, интенсивность, модернизация.

Abstract. Agglomerations - dense metropolitan areas and urban clusters – play a crucial role in the transition toward a green economy. This paper evaluates the impact of agglomerations on green economic development through three key indicators: CO₂ emissions, green employment, and energy intensity. Based on analyses of data from the World Bank, OECD, UN-Habitat, peer-

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114